



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariysi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariysi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariysi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 68 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirlari

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi

o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiysi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiysi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнали

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abusaid o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar mакtablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv.....	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	

TA'LIM SIYOSATI VA O'QITUVCHILARNING KASBIY RIVOJLANISHI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONDA AMALIYOT TAQQOSLAMASI

Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti tayanch doktoranti



Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola “Trainers’ Perspectives of Teacher Professional Development” nomli xalqaro maqola asosida tayyorlangan bo’lib, u o’qituvchilarning uzuksiz kasbiy rivojlanishi (UKR) masalasini milliy hamda xalqaro kontekstda taqqoslab tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu maqolada malaka oshirish treninglarining tuzilishi, mohiyati va foydasi ko’rib chiqiladi. Shuningdek, ularni tashkil etuvchi trenerlarning qarashlari ham o’rganiladi undan tashqari. Xususan, CPD (Continuous Professional Development) dasturlarida siyosiy hujjatlar bilan amaliyot o’rtasida tafovut mayjud, o’qituvchilarning ehtiyojlari umuman hisobga olinmayapti hamda treninglar asosan nazari va passiv shakllarda o’tkazilmoqda degan muammolar ko’tarilgan. CPD trenerlari ham o’z ustida ishlashlari kerakligi ayтиб o’tiladi. Maqolada xalqaro muammolar chuqur tarzda tahlil etiladi hamda O’zbekistondagi holatlар bilan qiyoslanadi. O’zbekiston ta’lim sohasida so’nggi yillarda islohotlar bo’layotganiga qaramay, CPD tadbirlari aksariyat hollarda ehtiyoja moslashmagan, umumiy va reflektiv yondashuvdan uzoq bo’lib qolmoqda. Mazkur tahlil ehtiyoja ko’ra asoslangan, reflektiv, kontekstual CPD modellarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi. Murabbiylar uchun ham uzuksiz rivojlanish mechanizmlarini joriy etish zarurligi ko’rsatib beriladi.

O’zbekistonda o’qituvchilarning kasbiy rivojlanishini takomillashtirish bo’yicha strategik qarorlar qabul qilishda mazkur maqola nazariy asos hamda xalqaro tajribadan foydalanish imkonini berishi maqolaning amaliy ahamiyatidir. Tadqiqot natijalari ta’lim sohasida CPD siyosatini qayta baholash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, u o’qituvchilar bilan trenerlar o’rtasida samarali hamkorlikni yo’lga qo’yadi hamda kasbiy rivojlanish jarayonini izchil va samarali tarzda amalga oshirish uchun konseptual asos bo’lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: o’qituvchi, kasbiy rivojlanish, CPD, ta’lim siyosati, reflektiv amaliyot, ehtiyoja asoslangan yondashuv.

Abstract: This scientific article is based on the international article “Trainers’ Perspectives of Teacher Professional Development,” which is aimed at a comparative analysis of the issue of continuous professional development of teachers (CPD) in national and international contexts. This article examines the structure, essence, and benefits of professional development training. In addition, the views of the coaches who organize them are also studied. In particular, the CPD (Continuous Professional Development) programs raise concerns that there is a discrepancy between policy documents and practice, that the needs of teachers are not taken into account at all, and that training is conducted mainly in theoretical and passive forms. CPD trainers also need to work on themselves.

The article analyzes international problems in depth and compares them with the situation in Uzbekistan. Despite the ongoing reforms in Uzbekistan’s education sector in recent years, CPD activities often remain disadvantaged, lacking a general and reflective approach. This analysis justifies the need to develop needs-based, reflexive, contextual CPD models. The need to introduce mechanisms of continuous development for coaches will also be shown.

The practical significance of this article lies in the fact that it provides a theoretical basis and allows for the use of international experience in making strategic decisions on improving the professional development of teachers in Uzbekistan. The research results serve to reassess the CPD policy in the field of education. In addition, it establishes effective cooperation between teachers and trainers and serves as a conceptual basis for the consistent and effective implementation of the professional development process.

Key words: teacher, professional development, CPD, educational policy, reflective practice, need-based approach.



Аннотация: Практическая значимость данной статьи заключается в том, что она обеспечивает теоретическую основу и позволяет использовать международный опыт при принятии стратегических решений по совершенствованию профессионального развития педагогов в Узбекистане. Результаты исследования служат для переоценки политики КПР в сфере образования. Кроме того, она устанавливает эффективное сотрудничество между преподавателями и тренерами и служит концептуальной основой для последовательного и эффективного осуществления процесса повышения квалификации. В статье глубоко анализируются международные проблемы и сравниваются с ситуацией в Узбекистане. Несмотря на продолжающиеся реформы в секторе образования Узбекистана в последние годы, деятельность по развитию профессиональных навыков часто остается неэффективной, не имея общего и рефлексивного подхода. Этот анализ обосновывает необходимость разработки потребностей, рефлексивных, контекстуальных моделей КПР. Также будет показана необходимость внедрения механизмов непрерывного развития тренеров.

Практическая значимость данной статьи заключается в том, что она обеспечивает теоретическую основу и позволяет использовать международный опыт при принятии стратегических решений по совершенствованию профессионального развития педагогов в Узбекистане. Результаты исследования служат для переоценки политики КПР в сфере образования. Кроме того, она устанавливает эффективное сотрудничество между преподавателями и тренерами и служит концептуальной основой для последовательного и эффективного осуществления процесса повышения квалификации.

Ключевые слова: учитель, повышение квалификации, КПР, образовательная политика, рефлексивная практика, подход, основанный на потребностях.

KIRISH

Bugungi kunda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi – global ta'limg siyosatida eng muhim yo'nalishlardan biriga aylangan. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, sifatli ta'limg avvalo kasbiy bilimga ega bo'lgan va zamonaviy pedagogik usullarni yaxshi biladigan o'qituvchilar orqali ta'minlanadi (Darling-Hammond va boshqalar, 2017). Shuning uchun, uzlusiz kasbiy rivojlanish (UKR) tizimining samaradorligi har bir mamlakat ta'limg siyosatida markaziy ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tizim doirasida ishlab chiqilgan CPD (Continuous Professional Development) dasturlari o'qituvchilarga amaliy bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishga yordam beradi (Fullan, 2007).

O'zbekistonda ham 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida pedagoglar malakasini oshirish va uzlusiz kasbiy rivojlanish ta'limg sifatini yaxshilashning eng muhim omili deb belgilangan (PF-60-sod Farmon, 2022). Jumladan, 2021-yilda qabul qilingan 553-sonli Hukumat qarorida o'qituvchilar uchun yangi malaka oshirish va kasbiy rivojlanish modellarini yaratish va joriy etish vazifasi qo'yilgan (Vazirlar Mahkamasi, 2021). Ammo amaliyotda bu jarayonlarda hali ham bir qator muammolar mavjud: CPD tadbirdari ko'pincha o'qituvchilarning haqiqiy ehtiyojlariha javob bermaydi, treninglar bir xil shablon asosida o'tkaziladi, interaktivlik va o'z-o'zini tahlil qilish darajasi past, trenerlarning o'zlarini uchun kasbiy rivojlanish imkoniyatlari esa cheklangan yoki umuman yo'q.

Ushbu maqolada aynan shu muammolar xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi. Masalan, Ahmed va Malik (2020)ning "Trainers' Perspectives of Teacher Professional Development" nomli tadqiqotida CPD tizimidagi asosiy muammolar – siyosat va amaliyot orasidagi farq, ehtiyojlarga mos kelmaydigan yondashuv va trenerlar uchun rivojlanish imkoniyatlarining yetishmasligi – chuqr o'rganilgan. Ushbu tahlillar O'zbekiston ta'limg tizimi bilan solishtiriladi.

Shuningdek, Avalos (2011) ta'kidlaganidek, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi faqat bilim olishdan iborat emas, balki o'z ishini tahlil qilish, tajriba almashish va refleksiya qilishga asoslangan jarayon bo'lishi kerak. OECD (2019) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda CPD tizimi rivojlanayotgan bo'lsa-da, uni yanada takomillashtirish uchun ehtiyoja asoslangan, kontekstual va reflektiv modellarni yaratish zarur.

Ushbu maqola orqali O'zbekistonda o'qituvchilarning uzlusiz kasbiy rivojlanishini xalqaro yondashuvlar asosida takomillashtirishga ilmiy hissa qo'shish maqsad qilinadi. Shuningdek, ta'limg siyosati va amaliyot o'rta-sidagi tafovutlarni kamaytirish, trenerlarning rolini kuchaytirish va ularning ham kasbiy rivojlanishini ta'minlash orqali tizimdagi mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola tahlilida sifatli kontent-analiz metodi asosida yuqoridagi xalqaro maqola asosiy manba sifatida o'rganildi. Unga parallel ravishda O'zbekiston Respublikasidagi CPD tizimiga oid davlat siyosatlari, strategik hujjatlar (Vazirlar Mahkamasining 553-sonli qarori, 2021) va amaliy holatlar tahlil qilindi. Muammolar, yechimlar va yondashuvlar uchta asosiy mezon bo'yicha taqqoslandi:



1. Siyosat va amaliyot,
2. Ehtiyoja asoslanganlik,
3. Reflektiv va hamkorlikdagi ta'lif (Fullan, 2007; Darling-Hammond et al., 2017).

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu maqola tahlili orqali o'qituvchilarning uzlusiz kasbiy rivojlanishida yuzaga kelayotgan muhim muammolar va ularni hal qilish imkoniyatlari aniqlanib, to'rt asosiy yo'nalishda ko'rib chiqildi:

1. Siyosat va amaliyot o'rtaqidagi tafovut:

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, CPD (uzluksiz kasbiy rivojlanish) dasturlari ko'pincha yuqori darajadagi siyosiy hujjatlar bilan boshqariladi. Ammo bu siyosatning mablag'i va hududlarda qanday amalga oshirilishi o'zaro uyg'un bo'lmasligi mumkin. Ahmed va Malik (2020) ta'kidlaganidek, CPD siyosiy hujjatlarida aniq maqsadlar belgilangan bo'lsa-da, ularning treninglar mazmuni va shakliga yetaricha aks etmasligi kuzatiladi. O'zbekistonda ham shunday holat mavjud. Prezidentning 2022-yildagi PF-60-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 553-sonli qarorida o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishga alohida urg'u berilgan. Lekin hududiy PTTMlар va maktablarda bu siyosat barqaror va samarali ravishda amalga oshirilmayapti. CPD mashg'ulotlari ko'pincha shakliy va faqat hisobot uchun o'tkazilmoqda. Fullan (2007) ham ta'kidlaganidek, siyosiy strategiyalardan amaliyotga o'tishda uzilishlar yuzaga kelishi mumkin, bu esa CPD samaradorligini kamaytiradi.

2. O'qituvchilarning ehtiyojlariiga yetaricha e'tibor berilmasligi:

"Trainers' Perspectives" tadqiqotida trenerlar fikriga ko'ra, CPD kurslari o'qituvchilarning haqiqiy kasbiy ehtiyojlarini chuqur o'rganmasdan tashkil qilinadi. Ko'pincha ular milliy darajadagi umumiyligi muammolarga asoslanadi va lokal sharoitdagi o'qituvchining real ehtiyojlarini qamrab olmaydi (Ahmed & Malik, 2020).

O'zbekistonda CPD kurslari esa ko'pincha bir xil modul va metodikaga asoslangan, standart tarzda o'tkaziladi. O'qituvchilarning mutaxassisligi, tajribasi, dars berayotgan fan va mablag'i sharoiti hisobga olinmaydi. OECD (2019) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda o'qituvchilar ehtiyojini aniqlash va monitoring qilish mexanizmlari hali rivojlanmagan. Bu esa CPD ishtirokchilarining motivatsiyasini pasaytiradi, aksincha passivlikni kuchaytiradi. Darling-Hammond va boshqalar (2017) ehtiyojga moslashgan, o'qituvchi markazidagi CPD modellarini samarali deb hisoblaydi. O'zbekistonda ham shunday yondashuvga bosqichma-bosqich o'tish zarur.

3. Treninglarning sifati va reflektivlik darajasi:

Kasbiy rivojlanishda nafaqat bilim olish, balki o'z amaliyotini tahlil qilish, tajriba almashish va fikr almashuv muhim hisoblanadi (Avalos, 2011). Xalqaro tadqiqotlarda treninglarning ko'p hollarda nazariy ma'ruza tarzida o'tilishi, interaktivlikning yetishmasligi tanqid qilinadi (Ahmed & Malik, 2020). Bu CPDdan kutilgan natijalarni kamaytiradi.

O'zbekistonda ham CPD mashg'ulotlari ko'plab frontal usulda, PowerPoint taqdimotlari orqali nazariy material berish shaklida o'tiladi. Amaliy misollar va o'qituvchilarning reflektiv muhokamalariga kam vaqt ajratiladi. Natijada, CPD o'z-o'zini anglash va amaliy tajriba orqali o'rganishdan uzoq bo'lib qoladi. Fullan (2007) ta'kidlaganidek, samarali o'qituvchi o'z ishini tahlil qila oladigan reflektiv sub'ektdir. Shuning uchun O'zbekistonda CPD treninglari reflektiv, kontekstual va ishtirokchiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

4. Trenerlarning o'zları uchun CPD tizimining mavjud emasligi:

Treninglarning samaradorligi nafaqat qatnashuvchilarga, balki ularni o'rgatadigan trenerlarning bilim va malakasiga ham bog'liq. "Trainers' Perspectives" maqolasida trenerlarning o'zları kasbiy yangilanishga ehtiyoj sezishlari, ammo ularga mo'ljallangan CPD dasturlari yetishmasligi muhim muammo sifatida ko'rsatib o'tilgan (Ahmed & Malik, 2020).

O'zbekiston ta'lif tizimida trenerlar uchun maxsus malaka oshirish va rivojlanish mexanizmlari tizimli tashkil etilmagan. Ular zamonaviy pedagogika, raqamli texnologiyalar, andragogika va metodologiya sohasida muntazam rivojlanishga muhtoj. Ayniqsa hududiy PTTM va Avloniy instituti trenerlari uchun maxsus CPD dasturlarini yo'liga qo'yish zarur. OECD (2019) ma'lumotlariga ko'ra, o'qituvchi va trenerlar birligida o'rganadigan "professional hamjamiyatlar" tashkil etish – eng ilg'or yondashuvlardan biridir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro amaliyotdagi CPD tizimidagi muammolar O'zbekiston ta'lif tizimi uchun ham dolzarbdir. Ularni o'rganish va tahlil qilish mamlakatimizda CPD tizimini yanada takomillashtirish uchun zarur ilmiy va amaliy asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqola tahliliga asoslanib, O'zbekiston ta'lismida o'qituvchilarining uzlusiz kasbiy rivojlanishini (UKR) samaraliroq qilish uchun quyidagi to'rtta asosiy strategik yo'nalish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etiladi:

1. Shaxsiylashtirilgan va ehtiyoja mos CPD modellarini yaratish:

Hozirda O'zbekistonda CPD mashg'ulotlari ko'proq markazlashgan va umumiy modul asosida olib boriladi, bu esa har bir o'qituvchining individual ehtiyojarini yetarlicha qamrab olmaydi. Samaradorlikni oshirish uchun o'qituvchining faoliyati, tajribasi, fan turi va maktab sharoitiga mos keladigan shaxsiy o'quv rejalarini ishlab chiqish kerak (Darling-Hammond et al., 2017). Bunday yondashuv Buyuk Britaniya, Singapur, Koreya va Finlyandiya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda (OECD, 2019). O'zbekistonda esa o'qituvchilar uchun individual kasbiy rivojlanish portfeli yuritish va maktab ichki boshqaruvi bilan uyg'unlashtirish yo'liga qo'yilishi maqsadga muvofiq.

2. Treninglar mazmunini reflektiv va kontekstual yondashuvlar bilan boyitish:

Avalos (2011) ta'kidlaganidek, CPD faqat bilim berish emas, balki o'qituvchilarining amaliyotini tahlil qilish, tajriba almashish va muammolarni muhokama qilish uchun ham imkoniyat yaratishi kerak. Afsuski, hozirda O'zbekistonda ko'plab treninglar nazariy va passiv tarzda o'tilmoqda. Buning o'rniga ishtirokchilarining real muammolari asosida, darslar tahlili, video-kuzatuv, guruh muhokamalari kabi reflektiv metodlarni joriy etish tavsiya etiladi (Fullan, 2007). Bunday ishni amalga oshirish uchun "Kasbiy o'quv hamjamiyatlari" (Professional Learning Communities – PLC) tashkil etish, Avloniy instituti, hududiy PMMLar va tajribali maktablar o'rtasida trening markazlarini yaratish mumkin. Shuningdek, CPD treninglari maktabda, ya'ni ish joyida olib boriladigan mentoring, coaching va amaliy seminarlar shaklida tashkil qilinishi muhim.

3. Trenerlar uchun maxsus CPD tizimini yaratish va rivojlantirish:

Trenerlar – CPD tizimining markaziy qismi. Ularning zamonaviy pedagogika, texnologiya va andragogika bo'yicha malakasi yetarli bo'lishi zarur. Ahmed va Malik (2020) tadqiqotida trenerlarning malaka oshirish imkoniyatlari cheklanganligi ko'rsatilgan. O'zbekistonda ayniqsa hududiy PMMLar va mahalliy trenerlar uchun maxsus "Trenerlar uchun CPD" dasturini ishlab chiqish kerak. Bu dasturga quyidagilar kiradi:

- Sertifikatlangan kurslar va malaka oshirish modullari;
- Zamonaviy trening metodlari va andragogika bo'yicha o'quvlar;
- Xalqaro hamkorlikda onlayn va oflayn malaka oshirish;
- Trenerlarni baholash va akkreditatsiya qilish mexanizmlari.

Darling-Hammond va boshqalar (2017) trenerlarni "professional development facilitator" sifatida shakllantirishni CPD tizimining eng muhim elementi deb hisoblaydi.

4. CPD tizimini monitoring qilish va baholash mexanizmlarini yaratish:

CPD samaradorligini oshirish uchun uning sifatini muntazam baholash va monitoring qilish zarur. O'zbekistonda hozircha bunday yagona milliy indikatorlar va kuzatuv tizimi mavjud emas (OECD, 2019). CPD monitoring mexanizmi quyidagi mezonlarga asoslangan bo'lishi kerak:

- O'qituvchi fikri va mulohazalari (feedback);
- Kompetensiylar darajasidagi o'sish;
- Dars sifatidagi o'zgarishlar (lesson observation);
- Maktabdagi o'quvchilarining natijalari (learning outcomes);
- Reflektiv yozuvlar va kasbiy portfel tahlili.

Bu jarayonlar "Evaluation-informed CPD" deb ataladi. Fullan (2007) fikricha, CPD samarasini faqat mashg'ulotlar soni bilan emas, balki o'qituvchining amaliyotiga ta'siri bilan o'chanadi. Shuning uchun Avloniy instituti, Xalq ta'limi vazirligi va hududiy boshqarmalar o'rtasida yagona CPD monitoring platformasi tashkil etilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ta'lismida CPDni takomillashtirish uchun shaxsiylashtirilgan yondashuv, interaktiv va reflektiv trening metodlari, trenerlar uchun maxsus rivojlanish tizimi hamda samarali monitoring mexanizmlarini joriy qilish muhimdir. Bu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan islohotlar o'qituvchilarining kasbiy salohiyatini oshirib, ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'qituvchilarning uzlusiz kasbiy rivojlanishi (UKR) zamonaviy ta'lismiz tizimlarining eng muhim ustunlaridan biri hisoblanadi. "Trainers' Perspectives of Teacher Professional Development" maqolasi asosida o'tkazilgan tahliliy taqqoslama O'zbekiston ta'lismizda duch kelinayotgan asosiy muammolarni aniqlash imkonini berdi. Mualliflar ko'rsatgan siyosat va amaliyot o'rtaqidagi tafovut, o'qituvchilarning ehtiyojlariha mos kelmaydigan CPD modullari, treninglardagi reflektivlikning pastligi hamda trenerlarning o'zi uchun CPD tizimining mavjud emasligi kabi muammolar aynan O'zbekiston sharoitida ham dolzarb ekanligi aniqlandi (Ahmed & Malik, 2020; Avalos, 2011).

O'zbekiston Respublikasi ta'lismiz siyosatida UKR muhim ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lsa-da (PF-60-son Farmon, 2022; 553-son Qaror, 2021), uning samarali amalga oshirilishi uchun bir qator strategik o'zgarishlar talab etiladi. Bularga quyidagilar kiradi: o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlariha mos va shaxsiy lashtirilgan CPD modellarini yaratish, trening mazmunini reflektiv va kontekstual yondashuvlar bilan boyitish, trenerlar uchun maxsus CPD dasturlarini tizimlashtirish hamda CPD tadbirlarini baholash va monitoring qilish uchun samarali indikatorlar ishlab chiqish (Darling-Hammond et al., 2017; Fullan, 2007; OECD, 2019).

Ushbu xulosalar shuni ko'rsatadiki, CPD tizimini o'qituvchi amaliyotiga yaqinlashtirmsandan, ta'lismiz sifatida ijobji natijalarga erishish qiyin. Shu sababli, O'zbekistonning milliy CPD strategiyasi xalqaro ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda, moslashtirilgan, reflektiv va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti va hududiy PTTMlар ushbu jarayonning muhim tashabbuskorlari bo'lib, tizimi o'zgarishlarga yordam beruvchi ilmiy va amaliy tayanch nuqtalari sifatida faoliyat olib borishi zarur.

O'zbekistonda CPD tizimi o'qituvchilarning kasbiy o'sishini ta'minlovchi vosita bo'lishi uchun, u markazlashgan va statistik yondashuv emas, balki individual, reflektiv va innovatsion yondashuvlarga asoslanishi kerak. Faqat shunday yondashuv orqali uzlusiz kasbiy rivojlanish haqiqiy ta'lismiz sifatining poydevoriga aylanishi mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmed, M., & Malik, M. (2020). Trainers' perspectives of teacher professional development: A case study from Pakistan. *International Journal of Educational Research*, 10(2), 45-60.
2. Avalos, B. (2011). Teacher professional development in Teaching and Teacher Education over ten years. *Teaching and Teacher Education*, 27(1), 10-20. <https://doi.org/10.1016/j.tate.2010.08.007>
3. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). Effective Teacher Professional Development. Palo Alto, CA: Learning Policy Institute. Retrieved from <https://learningpolicyinstitute.org/product/effective-teacher-professional-development-report>
4. Fullan, M. (2007). The New Meaning of Educational Change (4th ed.). New York: Teachers College Press.
5. OECD. (2019). Teacher Professional Learning and Development: The OECD Teaching and Learning International Survey (TALIS). Paris: OECD Publishing. Retrieved from <https://www.oecd.org/education/talis>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 28 yanvar). Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021, 19 oktabr). Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 553-son Qarori.
8. Guskey, T. R. (2000). Evaluating Professional Development. Thousand Oaks, CA: Corwin Press.
9. Desimone, L. M. (2009). Improving impact studies of teachers' professional development: Toward better conceptualizations and measures. *Educational Researcher*, 38(3), 181-199. <https://doi.org/10.3102/0013189X08331140>
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2023). Kasbiy rivojlanish bo'yicha metodik tavsiyalar. Toshkent: Avloniy nomidagi PMMI.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.